

UDK 342.7

XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARI FAOLIYATIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI ISHTIROKINING TASHKILIY-HUQUQIY XOSLIKLARI

Sagindikov M.Dj.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining tashkiliy-huquqiy xosliklarini tadqiq etish bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat boshqaruvini demokratlashtirish, mahalliy vakillik organlari rolini kuchaytirish, hududiy rivojlanish dasturlari ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash va fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini kengaytirish jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Mahalliy vakillik organlari faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining ahamiyati shundaki, ular orqali davlat hokimiyati qarorlarini qabul qilish jarayoniga jamiyat manfaatlari, aholi ehtiyojlari, mahalliy muammolar va ijtimoiy tashabbuslar kirib keladi. Shu ma'noda xalq deputatlari Kengashlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar faqat tashkiliy hamkorlik emas, balki konstitutsiyaviy demokratiyaning muhim ko'rinishidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xalq hokimiyatchiligi, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishi, davlat organlari faoliyatining ochiqligi, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash kabi prinsiplar mustahkamlangan. Mahalliy davlat hokimiyati tizimida xalq deputatlari Kengashlari tegishli hududda davlat hokimiyatining vakillik organlari sifatida faoliyat yuritadi. Qonunchilikda Kengashlar mahalliy byudjetlarni ko'rib chiqish va qabul qilish, ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash, hokim faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni eshitish kabi vakolatlarga ega ekanini belgilangan.

Mahalliy vakillik organlari faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining nazariy asoslarini tahlil qilganda, avvalo, fuqarolik jamiyati tushunchasiga murojaat qilish zarur. Gegel fuqarolik jamiyatini davlat va oila o'rtasidagi mustaqil ijtimoiy munosabatlar sohasi sifatida talqin qilgan bo'lsa, A. Tokvil demokratik jamiyatda fuqarolarning uyushmalar orqali birlashishi erkinlik va o'zini o'zi boshqarish madaniyatini shakllantirishini ta'kidlagan.[1.,145] Yu. Habermas esa fuqarolik jamiyatini jamoatchilik muhokamasi va kommunikativ harakat maydoni sifatida ko'rib, davlat qarorlari legitimligi fuqarolarning ochiq muloqot jarayonlaridagi ishtiroki bilan bog'liq ekanini asoslaydi [2.,65]. Ushbu nazariy yondashuvlardan kelib chiqib aytish mumkinki, xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirok etar ekan, ular mahalliy qarorlarning ijtimoiy asoslanganligi, ochiqligi va aholi manfaatlariga mosligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining xalq deputatlari Kengashlari faoliyatidagi ishtiroki, eng avvalo, tashkiliy jihatdan turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ular jumlasiga Kengash sessiyalarida ishtirok etish, doimiy komissiyalar yig'ilishlarida takliflar berish, mahalliy byudjet va hududiy dasturlar muhokamalarida qatnashish, jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish, deputatlarga murojaatlar kiritish, jamoatchilik ekspertizasi o'tkazish, ijtimoiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish, ommaviy axborot vositalari orqali Kengash qarorlari ijrosini yoritish va tahlil qilish kabi shakllar kiradi. Bunday ishtirok shakllari mahalliy vakillik organlarining faqat davlat apparati ichidagi institut emas, balki hudud aholisi bilan doimiy aloqada ishlaydigan vakillik organi ekanini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan hududiy dasturlarni, normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish borasidagi hamkorligidir. Davlat organlari, NNTlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ijtimoiy sheriklik subyektlari hisoblanadi. Bu norma xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining huquqiy asosini tashkil qiladi, chunki Kengashlar hududiy rivojlanish, mahalliy byudjet, ijtimoiy muhofaza, kommunal xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Mahalliy Kengashlar faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining birinchi tashkiliy-huquqiy xosligi uning vakillik tabiati bilan bog'liqdir. Xalq deputatlari Kengashlari saylov orqali shakllanadigan organ bo'lib, ularning siyosiy-huquqiy mohiyati xalq irodasini hududiy darajada ifoda etishdan iborat. Shu bois Kengashlar faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini ta'minlash deputatlik vakilligining ijtimoiy mazmunini kuchaytiradi. Agar deputat faqat saylov davrida emas, balki butun vakolat muddati davomida mahalla, NNT, kasaba uyushmalari, yoshlar, xotin-qizlar, tadbirkorlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, ekologik harakatlar va boshqa jamoatchilik tuzilmalari bilan muloqotda bo'lsa, vakillik funksiyasi real mazmun kasb etadi.

Ikkinchi xoslik - fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining maslahatlashuv va muhokama xarakteriga egaligidir. Kengash qarorlari qabul qilinishidan avval jamoatchilik fikrini o'rganish, tegishli sohada faoliyat yuritayotgan NNTlar, mutaxassislar, fuqarolar yig'inlari va ommaviy axborot vositalari ishtirokida muhokamalar o'tkazish qarorlarning sifatini oshiradi. R. Dal demokratik boshqaruvning muhim sharti sifatida fuqarolarning qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ko'rsatadi.[3.,84] Shu nuqtayi nazardan, mahalliy Kengashlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar faqat huquqiy jihatdan emas, balki ijtimoiy legitimlik nuqtayi nazaridan ham asoslangan bo'lishi lozim.

Uchinchi xoslik - jamoatchilik nazorati instituti bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunida fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, NNTlar, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik nazorati subyektlari sifatida maydonga chiqishi nazarda tutilgan. Jamoatchilik nazorati davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining qonunchilikka rioya etishi, fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor qarorlar qabul qilishi, davlat dasturlari va hududiy dasturlar ijrosini baholashda muhim

ahamiyat kasb etadi. Jamoatchilik ekspertizasi orqali normativ-huquqiy hujjatlar va davlat organlari qarorlari loyihalari jamiyat manfaatlariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan baholanishi mumkin.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida jamoatchilik nazoratining ahamiyati ayniqsa mahalliy byudjet ijrosi, hududiy dasturlar bajarilishi, kommunal xizmatlar sifati, ijtimoiy infratuzilma obyektlari qurilishi, aholi murojaatlari bilan ishlash, ekologiya, yoshlar siyosati va ijtimoiy himoya sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Kengashlar mahalliy byudjetlarni ko'rib chiqadi va ular ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu jarayonga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish byudjet ochiqqligi, mablag'larning maqsadli sarflanishi va hududiy ustuvorliklarni to'g'ri belgilashga xizmat qiladi. R. Patnemning ijtimoiy kapital haqidagi qarashlariga ko'ra, fuqarolarning uyushganlik darajasi va jamoaviy ishonch mahalliy institutlar samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.[4] Demak, mahalliy byudjet nazoratida jamoatchilik ishtiroki faqat moliyaviy shaffoflik emas, balki hududiy boshqaruv sifati masalasidir.

To'rtinchi xoslik - fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining huquqiy plyuralizm va manfaatlar xilma-xilligini ifoda etishidir. Har bir hududda ijtimoiy guruhlar, kasbiy birlashmalar, mahalla faollari, tadbirkorlar, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniyalar, ekologik tashabbuslar, nogironligi bo'lgan shaxslar manfaatlarini ifoda etuvchi tuzilmalar mavjud. Kengashlar qarorlari ushbu guruhlar hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli fuqarolik jamiyati institutlarining Kengash faoliyatida ishtirok etishi mahalliy qararlarda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi. J. Koen va E. Arato fuqarolik jamiyatini davlat va bozordan nisbatan mustaqil, lekin ular bilan muloqotda bo'lgan ijtimoiy makon sifatida ta'riflaydi.[5..123] Ushbu qarash mahalliy Kengashlar va fuqarolik jamiyati munosabatlariga ham to'liq tatbiq etiladi.

Beshinchi xoslik - fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining hududiy xususiyatlarga bog'liqligidir. Viloyat, tuman va shahar Kengashlari faoliyatidagi muammolar bir-biridan farq qiladi. Masalan, sanoatlashgan shaharda ekologik nazorat, mehnat bozori, transport va kommunal xizmatlar masalalari dolzarb bo'lsa, qishloq hududlarida yerdan foydalanish, suv ta'minoti, agrar infratuzilma, maktab va tibbiy xizmatlar sifati kabi masalalar ustuvor bo'lishi mumkin. Shu bois fuqarolik jamiyati institutlarining Kengashlar faoliyatida ishtirok etishi bir xil ma'muriy qolipda emas, balki hududning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari va aholi tarkibiga mos holda tashkil etilishi kerak.

Oltinchi xoslik - fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining doimiy komissiyalar faoliyati bilan bog'liqligidir. Xalq deputatlari Kengashlarida byudjet, iqtisodiy islohotlar, qonuniylik, reglament va deputatlik odobi, ijtimoiy-madaniy masalalar, yoshlar siyosati, xotin-qizlar, ekologiya va boshqa yo'nalishlarda doimiy komissiyalar faoliyat yuritadi. Aynan ushbu komissiyalar fuqarolik jamiyati institutlari bilan amaliy muloqotning eng qulay tashkiliy maydoni hisoblanadi. Komissiya yig'ilishlariga NNTlar, fuqarolar yig'inlari, ekspertlar, jurnalistlar va manfaatdor guruhlar vakillarini jalb etish orqali Kengash qarorlari loyihalari chuqurroq tahlil qilinishi mumkin.

Yettinchi xoslik - fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining deputatlik nazorati bilan uyg'unligidir. Deputatlik so'rovlari, deputatlik eshituvlari, mansabdor shaxslar hisobotlarini eshitish, hokim hisobotlarini muhokama qilish jarayonlari jamoatchilik ishtirokisiz to'liq samara bermaydi. Chunki deputat nazoratining asosiy manbai aholi murojaatlari, jamoatchilik fikri va hududiy muammolar haqidagi ochiq ma'lumotlardir. Fuqarolik jamiyati institutlari deputatlarga muammolarni tizimli ko'rsatib berish, mustaqil tahlillar tayyorlash, monitoring natijalarini taqdim etish orqali deputatlik nazoratini kuchaytiradi.

Sakkizinchi xoslik - fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining axborot ochiqqligi bilan bog'liqligidir. Agar Kengash qarorlari, sessiya kun tartibi, komissiya yig'ilishlari, byudjet ma'lumotlari, hokim hisobotlari, deputatlar faoliyatiga oid axborotlar aholi uchun ochiq bo'lmasa, fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirok imkoniyati cheklanadi. Ochiqlik ishtirokning dastlabki shartidir. Shuning uchun mahalliy Kengashlar veb-saytlari, ijtimoiy tarmoq sahifalari, ommaviy axborot vositalari, ochiq ma'lumotlar platformalari orqali fuqarolar va NNTlar bilan doimiy axborot almashuvini ta'minlashi lozim.

So'nggi yillarda mahalliy vakillik organlari vakolatlarini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar ushbu mavzuning amaliy ahamiyatini yanada oshirdi. 2024-yil 2-fevralda qabul qilingan PF-28-son Farmon bilan mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish va mahalliy Kengashlar rolini kuchaytirishga qaratilgan choralar belgilandi; unda jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda mahalliy vakillik organlari rolini oshirish maqsadi ko'zda tutilgani ta'kidlangan. Shuningdek, 2025-yilda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangani mahalliy Kengashlarning institutsional rivojlanishi va xalq hokimiyatchiligi prinsipini to'laqonli amalga oshirish bilan bog'liq vazifalarni yanada dolzarblashtirdi.

Fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining yana bir muhim tashkiliy-huquqiy yo'nalishi - normativ-huquqiy hujjatlar va mahalliy qarorlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonidagi ishtirokdir. Amalda davlat organlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda manfaatdor NNTlar va fuqarolik jamiyati institutlaridan takliflar to'plashi mumkin. [6.,79] Bu mexanizm mahalliy Kengashlar uchun ayniqsa muhimdir, chunki Kengashlar qabul qiladigan qarorlar aholining kundalik hayotiga bevosita ta'sir etadi. Shu sababli qaror loyihalari bo'yicha jamoatchilik muhokamalarini majburiy yoki kamida tavsiyaviy tartibda o'tkazish amaliyotini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Mahalla instituti fuqarolik jamiyatining o'ziga xos milliy shakli sifatida mahalliy Kengashlar faoliyatida alohida o'rin tutadi. Mahalla aholi ehtiyojlarini bevosita ifoda etuvchi, ijtimoiy muammolarni aniqlashda eng yaqin va samarali tuzilmalardan biridir.[8] Xalq deputatlari Kengashlari mahalla fuqarolar yig'inlari bilan tizimli ishlasa, ijtimoiy himoya, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar masalalari, huquqbuzarliklar profilaktikasi, mahalliy infratuzilma holati bo'yicha real axborotga ega bo'ladi. Shu ma'noda mahalla va Kengash o'rtasidagi hamkorlik vakillik demokratiyasi va o'zini o'zi boshqarish elementlarini birlashtiradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari esa mahalliy Kengashlar faoliyatida ixtisoslashgan ekspertlik va ijtimoiy tashabbus manbai sifatida ishtirok etadi. Masalan, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qiluvchi NNTlar shahar infratuzilmasining qulayligi, ta'lim va tibbiy xizmatlarga kirish imkoniyati bo'yicha Kengashlarga aniq takliflar berishi mumkin. Ekologik NNTlar chiqindilar, havo sifati, yashil hududlar, suv resurslari masalalarida jamoatchilik monitoringini amalga oshirishi mumkin. Yoshlar tashkilotlari bandlik, ta'lim, sport va madaniy muhit masalalarida tashabbus ko'rsatadi. Bunday ishtirok mahalliy qarorlarning sohaviy asoslanganligini kuchaytiradi.[9]

Ommaviy axborot vositalari va blogerlar ham Kengash faoliyatida fuqarolik jamiyati ishtirokining muhim subyekti hisoblanadi. Ular Kengash sessiyalarini yoritish, deputatlar faoliyatini tahlil qilish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, muammolarni kun tartibiga olib chiqish va qarorlar ijrosini kuzatish orqali ochiqlikni ta'minlaydi. Biroq bu jarayonda jurnalistik etika, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va xolislik talablariga rioya etish muhimdir. OAVning faol ishtiroki Kengashlarning jamiyat oldidagi hisobdorligini kuchaytiradi.

Mavjud amaliyotni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, fuqarolik jamiyati institutlarining xalq deputatlari Kengashlari faoliyatidagi ishtiroki bir qator muammolar bilan cheklanmoqda. Birinchidan, ayrim hududlarda Kengashlar faoliyati haqidagi axborot yetarli darajada ochiq emas. Ikkinchidan, NNTlar va mahalla tuzilmalarining Kengash komissiyalari faoliyatida ishtirok etish tartibi yetarlicha institutsionallashtirilmagan. Uchinchidan, jamoatchilik muhokamalari ba'zan formal xarakter kasb etishi mumkin. To'rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining ekspertlik salohiyati barcha hududlarda bir xil emas. Beshinchidan, Kengashlar tomonidan jamoatchilik takliflarini ko'rib chiqish va ular bo'yicha asoslantirilgan javob berish tartibi aniq mexanizmlarga ega emas.

Ushbu muammolarni hal etish uchun bir qator tashkiliy-huquqiy choralarni amalga oshirish zarur. Avvalo, xalq deputatlari Kengashlari reglamentlarida fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qilishning aniq shakllari belgilab qo'yilishi lozim. Masalan, sessiyalardan avval jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish, doimiy komissiyalar qoshida ekspert guruhlarini tashkil etish, NNTlar takliflarini rasmiy ro'yxatga olish, har bir muhim qaror loyihasi bo'yicha jamoatchilik xulosasi olish, fuqarolar murojaatlari va jamoatchilik tashabbuslarini Kengash kun tartibiga kiritish tartibini belgilash mumkin. **Ikkinchidan**, mahalliy Kengashlar huzurida jamoatchilik-maslahat organlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunday organlar tarkibiga NNTlar, mahalla, OAV, ilmiy muassasalar, tadbirkorlik subyektlari, yoshlar va xotin-qizlar tashkilotlari vakillari kiritilishi mumkin. Ular Kengash qarorlari loyihalari bo'yicha tavsiyalar berish, hududiy dasturlar ijrosini monitoring qilish, jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish va deputatlar bilan doimiy muloqot olib borish vazifalarini bajarishi mumkin. Bu institut Kengashning konstitutsiyaviy vakillik tabiati bilan fuqarolik jamiyati tashabbuskorligini bog'laydi. **Uchinchidan**, "ishtirokchi byudjet" mexanizmlarini mahalliy Kengashlar faoliyati bilan uzviy bog'lash zarur. Aholi va fuqarolik jamiyati institutlari mahalliy byudjetning muayyan qismini taqsimlashda takliflar kiritish, ovoz berish, loyihalar ijrosini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lsa, byudjet jarayonining ochiqligi va ijtimoiy samaradorligi ortadi. Bunda Kengashlar aholi tomonidan bildirilgan tashabbuslarni muhokama qilish, ustuvor yo'nalishlarni belgilash va ijro ustidan nazoratni amalga oshirishda asosiy vakillik organi sifatida qatnashishi lozim. **To'rtinchidan**, jamoatchilik ekspertizasi institutini kuchaytirish zarur. Mahalliy Kengashlar tomonidan qabul qilinadigan ijtimoiy ahamiyatga ega qarorlar loyihalari, ayniqsa byudjet, ekologiya, yerdan foydalanish, qurilish, kommunal xizmatlar, transport, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari bo'yicha jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Bu qarorlarning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini oldindan baholashga yordam beradi. **Beshinchidan**, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining natijadorligini ta'minlash uchun "taklif - ko'rib chiqish - javob - ijro monitoringi" zanjirini huquqiy jihatdan mustahkamlash lozim. Bugungi kunda fuqarolar va NNTlar taklif kiritishi mumkin, ammo ushbu takliflar qanday tartibda ko'rib chiqilishi, rad etilsa qanday asoslantirilishi, qabul qilinsa qanday ijro qilinishi masalalari har doim ham aniq emas. Shuning uchun Kengashlar faoliyatida fuqarolik jamiyati takliflarini hisobga olishning shaffof mexanizmi joriy etilishi kerak. **Oltinchidan**, deputatlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida doimiy muloqot platformalarini yaratish lozim. Deputatlar o'z saylov okruglarida NNTlar, mahalla faollari, fuqarolar tashabbus guruhlarini bilan muntazam uchrashuvlar o'tkazishi, ularning takliflarini Kengash komissiyalariga olib chiqishi, qabul qilingan qarorlar ijrosi yuzasidan hisobot berishi kerak. Bu deputatlik faoliyatini faqat sessiyalarda ishtirok etish bilan cheklab qo'ymasdan, real jamoatchilik vakilligiga aylantiradi. **Yettinchidan**, fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy savodxonligi va ekspertlik salohiyatini oshirish zarur. NNTlar, mahalla faollari va jamoatchilik vakillari mahalliy byudjet, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, jamoatchilik nazorati, deputatlik nazorati, ma'muriy tartib-taomillar, ochiq ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lsa, ularning Kengashlar faoliyatidagi ishtiroki mazmunli bo'ladi. Shu maqsadda Kengashlar, Adliya organlari, fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlash tuzilmalari va oliy ta'lim muassasalari hamkorligida o'quv dasturlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq. **Sakkizinchidan**, raqamli ishtirok mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Kengash qarorlari loyihalarini onlayn muhokama qilish, deputatlarga elektron murojaatlar yuborish, sessiyalar translyatsiyasini tashkil etish, mahalliy byudjet ma'lumotlarini ochiq formatda e'lon qilish, jamoatchilik takliflarining ko'rib chiqilish holatini kuzatish imkonini beruvchi elektron platformalar yaratilishi fuqarolar ishtirokini kengaytiradi. Biroq raqamli ishtirok aholining barcha qatlamlari uchun qulay bo'lishi, internetdan foydalanish imkoniyati cheklangan guruhlarini chetda qoldirmasligi lozim.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, mahalliy vakillik organlari faoliyatida fuqarolik jamiyati ishtirokining samaradorligi, odatda, uch omilga bog'liq: huquqiy kafolatlar, institutsional kanallar va fuqarolarning ishtirok madaniyati. Yevropa mahalliy o'zini o'zi boshqarish xartiyasida mahalliy hokimiyat organlarining aholiga yaqinligi, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni mustaqil hal etish vakolati va demokratik boshqaruv prinsiplari muhim o'rin tutadi.[10]

Bu tajriba O'zbekistonda xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini kuchaytirishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan tizimli hamkorlik zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki Kengashlarning vakolatlarini almashtirmasligi lozim. Kengashlar saylangan vakillik organi sifatida qaror qabul qilish mas'uliyatini saqlab qoladi. Fuqarolik jamiyati institutlari esa taklif berish, ekspertiza o'tkazish, jamoatchilik fikrini ifoda etish, monitoring qilish va hisobdorlikni kuchaytirish orqali qaror qabul qilish jarayonini boyitadi. Demak, bu munosabatlarda "davlat organi - jamoatchilik" qarama-qarshiligi emas, balki "vakillik organi - fuqarolik jamiyati - aholi manfaati" uchligi asos bo'lishi kerak.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining tashkiliy-huquqiy xosliklari shundan iboratki, bu ishtirok bir vaqtning o'zida konstitutsiyaviy, ma'muriy, moliyaviy, axborot, ijtimoiy va siyosiy-huquqiy mazmunga ega. U faqat NNTlarni yig'ilishga taklif qilish bilan cheklanmaydi; aksincha, mahalliy qarorlarni tayyorlash, muhokama qilish, qabul qilish, ijro etish va nazorat qilishning barcha bosqichlarida jamoatchilik ishtirokini nazarda tutadi. Shu jihatdan ushbu institut mahalliy demokratiyaning amaliy ko'rsatkichi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kuchaytirish O'zbekistonda mahalliy boshqaruvni demokratlashtirish, davlat organlari ochiqqligi va hisobdorligini ta'minlash, aholi manfaatlariga mos qarorlar qabul qilish, hududiy rivojlanish dasturlarining samaradorligini oshirish va xalq hokimiyatchiligi prinsipini hayotga tatbiq etishning muhim yo'nalishidir. Buning uchun fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining huquqiy kafolatlarini aniqlashtirish, Kengashlar reglamentlarida jamoatchilik bilan hamkorlik mexanizmlarini belgilash, doimiy komissiyalar faoliyatiga NNTlar va ekspertlarni jalb etish, jamoatchilik ekspertizasi va eshituvlarini kengaytirish, mahalliy byudjet jarayonini ochiqqlashtirish va raqamli ishtirok platformalarini rivojlantirish zarur.

O'zkazilgan tahlillar qo'yidagi xulosalarni keltirish imkonin beradi: **Birinchidan**, xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki xalq hokimiyatchiligi, vakillik demokratiyasi va jamoatchilik nazorati prinsiplarining mahalliy darajada amalga oshirishini ta'minlaydi. **Ikkinchidan**, mazkur ishtirokning tashkiliy-huquqiy xosligi uning ko'p subyektli, ko'p bosqichli va hududiy ehtiyojlarga bog'liq ekanida namoyon bo'ladi. **Uchinchidan**, fuqarolik jamiyati institutlari Kengashlar faoliyatida maslahatchi, ekspert, monitoring subyekt, jamoatchilik fikrini ifoda etuvchi va ijtimoiy sherik sifatida ishtirok etadi. **To'rtinchidan**, Kengashlar faoliyatida fuqarolik jamiyati ishtirokini kuchaytirish uchun jamoatchilik eshituvlari, jamoatchilik ekspertizasi, ishtirokchi byudjet, deputatlik nazorati va doimiy komissiyalar faoliyatini o'zaro bog'lash zarur. **Beshinchidan**, mahalliy Kengashlar reglamentlarida NNTlar, mahalla, OAV va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qilishning aniq tartib-taomillarini belgilash maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Токвил А. Демократия в Америке. - Москва: Прогресс, 1992. - С.186.
2. Habermas J. The Structural Transformation of the Public Sphere. - Cambridge: MIT Press, 1989. - S. 121.
3. Dahl R. Democracy and Its Critics. - New Haven: Yale University Press, 1989. - S. 244.
4. Putnam R. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. - Princeton: Princeton University Press, 1993. - S. 152.
5. Cohen J., Arato A. Civil Society and Political Theory. - Cambridge: MIT Press, 1992. - S. 345.
6. European Charter of Local Self-Government. Council of Europe, 1985. - S. 5.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023-yil // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
8. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni. 1993-yil 2-sentyabr // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda.
9. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni. 2018-yil 12-aprel // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2018 y., 03/18/474/1062-son.
10. O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. 2014-yil 25-sentyabr // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 39-son, 488-modda.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining tashkiliy-huquqiy xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Unda mahalliy vakillik organlari faoliyatida nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik kengashlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki demokratik boshqaruv, xalq hokimiyatchiligi, ochiqlik, hisobdorlik va jamoatchilik nazorati prinsiplari bilan bog'liq holda yoritildi.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, mahalliy vakillik organlari, jamoatchilik nazorati.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются организационно-правовые особенности участия институтов гражданского общества в деятельности Кенгашей народных депутатов Республики Узбекистан. В ней освещалось участие негосударственных некоммерческих организаций, органов самоуправления граждан, средств массовой информации, общественных советов и других институтов гражданского общества в деятельности местных представительных органов в увязке с принципами демократического управления, народовластия, открытости, подотчетности и общественного контроля.

Ключевые слова: гражданское общество, местные представительные органы, общественный контроль.

Abstract. This article analyzes the organizational and legal features of civil society institutions' participation in the activities of the Kengashes of People's Deputies of the Republic of Uzbekistan from scientific-theoretical and practical perspectives. It highlighted the participation of non-governmental non-profit organizations, citizens' self-government bodies, mass media, public councils, and other civil society institutions in the activities of local representative bodies in harmony with the principles of democratic governance, people's power, openness, accountability, and public control.

Keywords: civil society, local representative bodies, public control.

